



**PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING AHOLI O`RTASIDA HUQUQIY
TARG`IBOTNI AMALGA OSHIRISHI ORQALI HUQUQIY ONG VA
MADANIYATNI YUKSALTIRISHINING DOLZARBLIGI**

*O`zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 311-guruh kursanti
Yo`lchimurodov Otabek Ne`matjon o`g`li*

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada profilaktika inspektorining aholi orasida huquqiy targ`ibotni amalga oshirishini tartibga soluvchi qonunchilik normalari orqali qo`yilgan vazifalar va ularni amalga oshirib boorish jarayonlari hamda ushbu sohada vujudga kelayotgan muammolar yoritib berilgan. Bundan tashqari, ushbu kamchiliklarni bartaraf etishda amalga oshirilishi lozim bo`lgan chora-tadbirlar keltirib o`tilgan.*

Annotation: *This dissertation examines the specifics of the cooperation of the prevention inspector with the judiciary in raising the legal awareness and legal culture of citizens, the organizational and legal basis of cooperation, the lack of cooperation, the lack of proposals and the problems that arise experience and similarities and differences in our national legislation, areas for improving cooperation.*

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda xuquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib, xuquq-tartibotni ta`minlashda ijobiy natijalarga xamda kriminogen vaziyatni sezilarli darajada yaxshilashga erishildi. Jamiyatimizda barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirish, inson huquq va erkinliklariga so`zsiz rioya etilishini ta`minlash mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish, aholi farovonligini yuksaltirish, huquqiy demokratik davlat qurish uchun eng avvalo jinoyatchilikka qarshi kurash, xuquqbuzarliklarning oldini olish va ularning sabab va sharoitlarini bartaraf etish bugungi kunda eng dolzarb masalagina bo`lib qolmay, eng samarali chora-tadbirlardan biri, keng ko`lamlı islohotlardan ko`zlangan maqsadlarga erishishning muhim sharti hisoblanadi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Xarakatlar strategiyasi to`g`risidagi PF-4947-sonli Farmonining 1-Ilovasi II-bo`limi Qonun ustuvorligini ta`minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo`nalishlari deb belgilangan bo`lib, uning 2.4-bandi Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish deb nomlanganligining o`zi bu boradagi ishlarga qaratilgan e`tiborni yaqqol ifoda etgan xolda, unda quyidagi ustuvor vazifalar belgilab berilgan:

jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirishning samaradorligini oshirish diniy ekstremizm va terrorizmga, uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo`yicha tashkiliy-amaliy choralarни kuchaytirish; korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshikurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish;



aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyatni institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro samarali hamkorligini tashkil etish.

Barchaga ma'lumki, jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, aholining huquqiy madaniyati va ongini oshirish, shaxsning hayoti, sog'lig'i, sha'ni, qadr-qimmati va mol-mulkini turli tajovuzlardan himoya qilishda profilaktika inspektorlarining o'rni muhim ahamiyatga egadir. Fuqarolarning tinchligi va osoyishtaligini, ularning xavfsizligini ta'minlashda ichki ishlar organlarining quyi tizimi hisoblangan, ya'ni ichki ishlar organlarining tayanch punktlarida xizmat faoliyatini olib boruvchi profilaktika inspektorlarining xalqqa yaqinligi va ular doimiy ravishda odamlar orasida bo'lishi huquqbazarliklarning oldini olishda hamda ularning huquqiy ongi va madaniyatini kuchaytirishda o'z samarasini bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18-apreldagi PQ 2896-sloni Qarorida profilaktika inspektorlarining vakolatlari sifatida huquqbazarliklar profilaktikasi, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, ularga qonunga hurmat hissini singdirish bo'yicha tadbirlarni, shu jumladan, davlat organlari va tashkilotlari, fuqarolik jamiyatni institutlari vakillarini jalg etgan holda, o'tkazish kiritilgan.

Profilaktika inspektorining fuqarolarning xuquqiy ongi va xuquqiy madaniyatini yuksaltirish ob'yekti keng jamoatchilikdir. Xususan, mahalla aholisi, mehnat jamoalari (korxona, muassasa, tashkilotlar xodimlari), voyaga yetmaganlar jamoasi (maktab, kollej va akademik litseylar), yoshlar jamoasi va boshqalar. Fuqarolarning xuquqiy ongi va xuquqiy madaniyatini yuksaltirish profilaktik tadbirlarning amalga oshirilishi jarayonida barchaga bir hil ravishda yetkazib berilishi bilan ajralib turadi. Profilaktika inspektorining fuqarolarning xuquqiy ongi va xuquqiy madaniyatini yuksaltirishda faoliyatini tashkil etishda huquqbazarliklarning sodir etilish sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlashga qaratilgan tadbirlar muxim o'rinn tutadi. CHunki bu jarayonda hududdagi yoki ma'lum bir guruuhlar o'rtasidagi muammolar, nizolar va huquqbazarliklarning umumiy ko'rinishi tahlil etiladi; ikkinchidan, huquqbazarliklar profilaktikasining chora-tadbirlarini to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirish kiradi, masalan, fuqarolar bilan uchrashuvlar tashkil etish, ma'ruzalar o'qish, targ'ibot tashviqot ishlarini tashkil etish va amalga oshirish kabilalar. Profilaktika inspektorining fuqarolarning xuquqiy ongi va xuquqiy madaniyatini yuksaltirish faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- huquqbazarliklar profilaktikasining chora-tadbirlarini tashkillashtirish va o'tkazish jarayoniga, ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlari, huquqbazarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi boshqa organ va muassasalar hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari vakillarini, fuqarolarni jalg etish;

- huquqbazarliklarning umumiy profilaktikasini ommaviy axborot vositalarida chiqishlar qilish, joylarda ma'ruzalar o'qish, davra suhbati, uchrashuvlar tashkil etish, aholi gavjum joylarda huquqbazarliklar profilaktikasiga doir plakatlar, e'lonlar joylashtirish, videoroliklar namoyish qilish, ogohlilikcha qaqiruvchi ovozli matnni eshittirish, internettarmog'ida qonunchilikdagi yangiliklardan xabardor qiluvchi, fuqarolarni ogoxlikka qaqiruvchi va xuquqiy madaniyatning oshishiga xizmat qiluvchi ma'lumotlarni jamlagan turli saytlar, bloglar va chatlar



tashkil etish, shuningdek aholi gayjum joylarda hamda piyodalarning faol harakatlanish yo'nalishlarida patrullik yo'nalishlarini tashkil etish, ma'muriy hududni profilaktik ko'zdan kechirish kabi profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali tashkil etilishini ta'minlash;

- Profilaktika inspektorining fuqarolarning xuquqiy ongi va xuquqiy madaniyatini yuksaltirishda, O'zbekiston Respublikasining qabul qilingan yangi qonunlari, Prezident qarorlari, farmoyishlari va farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari mazmun-mohiyatini aholiga yetkazish choratadbirlarini amalga oshirishning axamiyati beqiyosligini xisobga olib bu jarayonga boshqa huquqni muhofaza qilish organlari, ma'naviy-huquqiy targ'ibot markazlari, ta'lif muassasalarining vakillarini, shuningdek olimlarni, shoirlarni va deputatlarning jalb etilishini ta'minlash;

- ma'muriy hududda g'ayriijtimoiy xulq-atvor va xuquqbazarlik sodir etishga moyillikning shakllanishiga yoki alohida turdag'i huquqbazarliklarning sodir etilishini taqozo etayotgan sabablarni va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlaganda ularni bartaraf etish yuzasidan korxona, muassasa, tashkilot hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqdimnomma kiritilishini ta'minlash.

Profilaktika inspektorlarining fuqarolarning xuquqiy ongi va xuquqiy madaniyatini yuksaltirishni tashkil etish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

- huquqbazarliklar profilaktikasi, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish bo'yicha qo'shma tadbirlarini rejalashtirish va o'tkazish, kollegial qarorlarni talab qiluvchivazifalardan kelib chiqib qo'shma yig'ilishlar o'tkazish va faoliyatga baho berish bilan birgalikda amalga oshirilgan ishlar natijalarini hisobga olishxisoblanadi.

- hamkorlikni tashkil etishning ilg'or shakllari va usullarini umumlashtirish hamda amaliyotga tatbiq etish.

- Hamkorlikning darajasi, doirasi va xususiyatidan kelib chiqib, qonunchilikka muvofiq boshqa tadbirlar ham amalga oshirilishi mumkin.

Profilaktika inspektorining fuqarolarning xuquqiy ongi va xuquqiy madaniyatini yuksaltirish faoliyati "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonunning 7-moddasida Ichki ishlar organlarining huquqlari sifatida jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga doir ishlarda ishtirok etish xamda yana bir normativ xuquqiy xujjat bo'lmish Xuquqbazarliklar profilaktikasi qonuning 9-moddasida xuquqbazarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar sifatida ichki ishlar organlari belgilangan.

Jumladan, "Ichki ishlar organlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonuning 1-bobi 2- moddasida Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari sifatida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilishdan, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta'minlashdan, shuningdek huquqbazarliklarning oldini olish va profilaktikasidan iboratligi belgilab qo'yilgan.

Ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari esa Qonunning 4- moddada quyidagicha belgilangan:



Ichki ishlar organlari faoliyatni o'z vakolatlari doirasida quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiradi: fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish; jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash; tergovga qadar tekshiruvni, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish, jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv hamda dastlabki tergovni o'tkazish; jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurashish, shu jumladan fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish; tergovga qadar tekshiruvni, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish, jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv hamda dastlabki tergovni o'tkazish; jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurashish, shu jumladan terrorchilik harakatlariga chek qo'yishda hamda garovga olinganlarni ozod qilishda ishtirok etish yo'li bilan kurashish, shuningdek odam savdosiga qarshi kurashish; huquqbazarliklar profilaktikasi, ularning sabablarini va sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish, huquqbazarliklarni sodir etishga moyil shaxslarni aniqlash; qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga doir ishlarda ishtirok etish belgilangan.

Adliya vazirligining fuqarolarning xuquqiy ongi va xuquqiy madaniyatini yuksaltirish xamda xuquqiy axborotlarni tarqatish bo'yicha xuquq va majburiyatlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13 apreldagi PQ-3666-son qarorining 1-ilovasi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to'g'risidagi Nizomning 1-bobi 8- va 9-bandlarida quyidagicha belgilab quyilgan:

Huquqiy targ'ibotni amalga oshirish, aholiga qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mohiyati va ahamiyatini yetkazish, aholining huquqiy savodsizligini yo'q qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek davlat organlari va tashkilotlarining huquqiy targ'ibot sohasidagi ishlarni muvofiqlashtirish sohasida:

Huquqiy targ'ibot va ma'rifat bo'yicha davlat organlari ishlarni muvofiqlashtirish bo'yicha idoralararo kengashning ishini tashkil etadi.

davlat organlari va tashkilotlarida huquqiy targ'ibot holatini tahlil qiladi, mazkur sohadagi ishlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi; huquqiy savodsizlikni yo'q qilishga, jamiyatda inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga qaratilgan aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish bo'yicha choralarini amalga oshiradi. eng dolzarb, aholini qiziqtiradigan masalalarni belgilaydi va ular bo'yicha manzilli va predmetli huquqiy targ'ibotni amalga oshiradi, aholiga qonun hujjatlari mazmun va mohiyatini yetkazish bo'yicha choralar ko'radi; huquqiy targ'ibotning innovatsion usullaridan keng foydalanishni, shu jumladan veb-tehnologiyalarni qo'llashni kengaytirishni ta'minlaydi; vakolatlari davlat organlari va tashkilotlari bilan birgalikda normativ-huquqiy hujjatlar ijrosi va targ'ibotini ta'minlash bo'yicha «Yo'l xaritasi»ni tasdiqlaydi; vakolatlari davlat organlari va tashkilotlari bilan birgalikda qabul qilingan hujjatlarning norma va qoidalarini aholiga tushuntirish bo'yicha namunaviy hujjatlar yig'indisini tayyorlaydi; qonun hujjatlarining mazmuni va mohiyatini tushuntirib beruvchi materiallarni tayyorlaydi, ularni aholi o'rtasida, shu jumladan ommaviy axborot vositalari va Internet tarmog'i orqali tarqatadi; davlat organlari va tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va ommaviy axborot vositalarini jalb qilgan holda jamiyatda huquqiy



bilimlarni targ'ib qilishni tashkil etadi; huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash: davlat organlari va tashkilotlarining huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanish imkoniyatini yaratish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi, uslubiy rahbarlikni va nazoratni amalga oshiradi; normativ-huquqiy hujjatlar va tegishli axborot-tahliliy materialarning barcha davlat organlari va tashkilotlariga o'z vaqtida yetkazilishini ta'minlaydi; huquqiy axborotni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilishning dasturiy-texnik vositalari va texnologiyalari joriy etilishini tashkil qiladi; davlat organlari va tashkilotlarini zarur normativ-huquqiy hujjatlar bilan ta'minlash choralarini ko'radi; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasini yaratish va saqlashni tashkil qiladi, yuridik va jismoniy shaxslarning undan foydalanishini belgilangan tartibda ta'minlaydi; normativ-huquqiy hujjatlarni, shu jumladan normativ-huquqiy hujjatlarni e'lon qilishning rasmiy manbai hisoblangan «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami», shuningdek O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda «O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari to'plami»ning rasmiy nashr etilishini tashkil etadi va ushbu orqali fuqarolarning xuquqiy ongi va xuquqiy madaniyatini yuksaltirda asosiy vazifalarni amalga oshiradi. faoliyatini takomillashtirishga to'sqinlik qilayotgan ayrim muammolar quydagilardir:

1. Muammo: maxalla xuquq-tartibot maskanlari ishini tashkil etish ma'suliyati yuklatilgan profilaktika inspektorlarining ko'pchiligidagi , ichki ishlar organlarining turli xizmatlari va jamoatchilik tuzilmalari a'zolari o'rtasida, davlat va nodavlat tashkilotlari, korxona, muassasa, tashkilotlar hamda keng jamoatchilik bilan samarali hamkorlikni tashkil etish uchun zarur bo'lgan tashabbuskorlik, tashkilotchilik, keng fikrlilik, kirishimlilik, kasbiy hamda pedagogik qobiliyat va ko'nikmalar yetarli darajada emasligi;

1. Taklif: fuqarolarning xuquqiy ongi va xuquqiy madaniyatini yuksaltirish bo'yicha belgilangan aniq vakolatlar va mexanizmlardan kelib chiqib, xamkorlikning ustuvor yo'nalishi hisoblangan huquqbazarliklarni, shu jumladan, jinoyatlarni oldini olish sub'yektlarining bu sohadagi faoliyatini tartibga solish, shu jumladan, ular o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish;

2. Muammo: Xududlarda o'zaro xamkorlik tuman-shaxar IIBlar boshliqlari nomidan chiqariladigan so'rovnomalarni amalga oshirilmoqda va bu ortiqcha byurokratiyaga sabab bo'lmoqda;

2. Taklif: Ushbu soxadagi o'zaro xamkorlik bo'yicha so'rovnomalarni profilaktika (katta) inspektorlari nomidan chiqarilishiga ruxsat berilishi bilan bog'liq qonunchilik o'zgarishlarini amalga oshirish;

3. Muammo: maxalla xuquq-tartibot maskanlari vazifalarini amalga oshirishda profilaktika (katta) inspektorlarining xamda hamkorlikda faoliyat ko'rsatishi belgilangan davlat organlari xamda fuqarolarni o'zinio'zi boshqarish organlari, aniqrog'i maxallalar fuqarolar yig'ini raislari (oqsoqollari)ning o'z vazifalarini bilmasliklari yoki rasmiyatchilik asosida yuzaki karashlari, hamkorlikda amalga oshirilishi zarur bo'lgan tadbirlarda faol ishtirok etmasliklari yoki egallab turgan ma'sul yoki jamoatchilik lavozimlarida xizmat olib borayotganlar o'z ishlariga ma'sulyatsizlik bilan qarayotganliklari;

3. Taklif: maxalla xuquq-tartibot maskanlari ishiga rahbarlik qilish ma'suliyati yuklatilgan profilaktika (katta) inspektorlari lavozimiga ichki ishlar organlarida kamida uch yil ishlagan, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, keng fikrlilik qobiliyatiga, huquqshunoslik va pedagogikpsixologik bilimlarga ega bulgan xodimlarni tayinlash maqsadga muvofiq, maxalla xuquq-tartibot maskanlari profilaktika (katta) inspektorlari bilan doimiy hamkorlikda faoliyat yurituvchi sub'yektlarning maxsus dastur asosida fuqarolar huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishni amalga oshirish, fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlarining ichki ishlar organlari va boshqa organlari bilan bir vaqtda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ham ma'suliyatli ekanligini alohida ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi

4. Muammo: Xozirda jinoyatchilikka qarshi kurashish va barvaqt profilaktika qilishda asosiy muvofiqlashtiruvchi vazifani bajaruvchi maxalla xuquq-tartibot maskanlarida profilaktika (katta) inspektorlari tomonidan fuqarolarning xuquqiy ongi va xuquqiy madaniyatini yuksaltirish uchun tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun kerakli moddiy-texnik bazaning yetishmasligi;

4. Taklif: Moddiy texnik bazani yaxshilash chora-tadbirlarini ishlab chiqishda viloyat va tuman-shaxar xokimliklariga qoida tariqasida, dastavval profilaktika (katta) inspektorlaridan boshlash, ularning fuqarolarni qabul qilishlari uchun xizmat xonalari axvolini yaxshilash, kompyuter va internet tarmog'i bilan to'liq ta'minlash majburiyatini yuklash;

5. Muammo: profilaktika inspektorining ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlardagi targ'ibot-tashviqot ishlarining yetarli darajada tashkil etilmasligi;

5. Taklif: butun dunyoda davom etayotgan koronavirus pandemiyasi sharoitini xisobga olib xozirgi vaqtda fuqarolarmizning ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanishini xisobga olib maxalla xuquq-tartibot maskanlarida axolining xuquqiy ongi va xuquqiy madaniyatini yuksaltirishda asosiy urg'uni ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlardan kengroq foydalanish bilan bog'liq qonun normasini kiritish; Xulosa qilib aytganda, fuqarolar huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishni amalga oshirish tadbirlari maxalla xuquqtartibot maskanlari negizida olib borilishi, bir tomonidan, davlat organi bo'lgan ichki ishlar organlari xodimlarining kuch va vositalari, ikkinchi tomonidan, u yerdagi fuqarolarning, o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan yaqin hamkorligi hamda huquqbuzarliklar profilaktikasi asnosida samarali tashkil etilishi - tizim imkoniyatlarini to'liq amalga oshirishda juda muhimdir.